

## BUGUNGI KUNDA OILADA BOLALARGA KITOBXONLIK VA O'QISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

**Ilyasova Zamira Uzakbaevna**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI «Umumiy pedagogika va psixologiya» kafedrasida o'qituvchi*

**Klishov Kadirbay Uzaqbaevich**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi «Pedagogika, psixologiya talim texnologiyalar metodikasi» kafedrasida katta o'qituvchi*

**Tayanch so'zlar:** *kitob o'qish madaniyati, mustaqil kitob o'qishni shakllantirish usullari, oila, badiiy asarlar.*

**Ключевые слова:** *культура чтения, самостоятельно формирования к чтению, методы формирования, семья, художественные произведения.*

**Keywords:** *the culture of the reading, by itself shaping to reading, methods of the shaping, family artistic works.*

Kitob– inson hayot yo'llarini yoritib turguvchi so'nmas ziyo, insonning hayotiga mazmun bag'ishlaydigan baxtdir. Har qanday holatda ham yo'ldosh bo'lguvchi sodiq do'stdir. Insonning psixik kamolotini ta'minlashda kitobdek kuchli qudratga ega yo'q bo'lib hisoblanadi. Shu sababli azal- azaldan ilm yulduzlari, donishmandlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ta'limning va odobning sirlarini o'rganishga chorlab kelgan. Tarbiyaning barcha mezon va elementlari dastlab oilada shakllanganidek, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashda ham oilaning o'rni benihoya kattadir. “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, degan maqol buni yana da dolzarb bosqichga ko'taradi.

Insonning axloqiy, ma'naviy hamda ruhiy qiyofasi, xatti-harakatlari uning oilada ko'rgan tarbiyasining mahsulidir. Oila jamiyatning kichik bo'g'ini hisoblanadi. Unda shu jamiyatning rivojiga o'z hissasini qo'sha oladigan yosh avlod yetishib chiqadi.

Haqiqatdan ham shaxs rivojlanishidagi oilaga tegishli muhit, oilaga tegishli qadriyatlar asosiy vosita sifatida qaraladi. Ota- onaning ma'naviy darajasi, axloqiy qarashlari bevosita farzandga ham ko'chib o'tadi. Farzandlarning o'zligida akslanadi.

Shu tufayli kitobxonlik badiiy adabiyotga muhabbati ham insonning ma'naviy tafakkurini, tarbiya jarayonida namoyon bo'ladigan ahamiyatli xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Kitob dunyosiga qiziquvchi, badiiy adabiyotga bog'liq olamga hamnafas, badiiy adabiyotdan foyda ko'ngil egasi o'zidagi bu tuyg'u va fazilatlarini atrofda qilargalarga, ayniqsa oilaga ham yuqtirish, singdirish imkoniyati yo'qori. Kitobga qiziquvchi ota- onalarning farzandi ham o'zgacha mehr ko'rsatadi. Bu ma'naviyat xazinasiga qiziquvchilik uyg'otadi. Shu sababdan avvalo ota- onaning tarbiyasi bo'lishi, badiiy adabiyotga ishtiyoqi baland ekanligi ahamiyatlidir.

Atrofimizdagi tanish bo'lgan oilalar hayotiga nazar tashlasak qaysi bir oilada kitobxonlik madaniyati qay darajada shakllanganligiga ko'ngil bo'lamiz. Kimdir dunyoviy hodisalar tubsiz dengiz qarida suzishni xush ko'rsa, kimlardir badiiy adabiyot osmonida uchishga ishtiyoqmand bo'ladi. Kimdur bir oyda bir kitob o'qishga vaqt ajratsa, yana kimlardir haftada bir kitob

o'qishni odat qilgan bo'ladi. Qullas, kitob bilan hamma o'z olamida, o'z xohishi va imkoniyatlari chegarasida har xil holatda uchrashadi. Shu o'rinda yanada aniqlik kiritish uchun aynan bir oila misolida kitobxonlikga qaratilganligi haqida to'xtalib o'tamiz

Shuningdek, bir oilada kitob o'qilishi kundalik qadr topgan. Besh farzand voyaga yetkazayotgan bu oila egasi va ayoli ham farzandlarining kitobxon bo'lishi uchun intiladi. O'zi tug'ilib voyaga etgan muhitida ham kitobga muxabbati, adabiyotga e'tibori bilan voyaga yetgan. Kitobxonlikni oilaga aloqador zaruriy qadriyatga aylantirish bu insonlar bugun farzandlarining ham kitob deb ataluvchi buyuk va bebaho xazinasidan foydalanuvchi bo'lib, ma'naviy komillikga yetishini hohlaydi. Buning uchun ota-ona o'z vaqt va imkoniyatiga qarab chuqur mazmunli, badiiy- nafosati yuksak bo'lgan har xil badiiy adabiyotga oid janrdagi, jahon va milliy adabiyotimizning durdonalarini tanlab sotib oladi. Bu ijodiyotni farzandlarining yosh va qiziqishlari, aqliy salohiyati, o'zlashtirish qobiliyatini e'tiborga olgan holatda taqsimlab beradi. Eng ahamiyatlisi shundaki kitob tavsiya qilinganida hajmini hisobga olgan holda, o'qish uchun maxsus bir vaqt ajratiladi.

Oila boshlig'i ya'ni ota bunga aloqador va qa'tiyatli. U har kuni o'qilishi lozim bo'lgan bet miqdorini belgilab beradi. Qo'shiq ijodiyotiga alohida qiziqish bildirib, har bir farzandiga qo'shiqlarni yod olib borishni tayyor qilib turadi. Deyarli, har kuni kechqurun qaytib, ovqatlanishdan keyin, farzandlarini birma- bir chaqirib, bir pedagogdek topshirgan vazifaning bajaralishini nazorat qiladi. Ya'ni, farzandlari o'zlari yod olgan qo'shiqlarni aytib beradi; o'qitayotgan ijodiyotida belgilangan varaqlar va uning mazmunini gapiradi; qahramonlar faoliyati, xarakter hususiyatiga munosabatini bildiradi. Bul jarayonda farzandlarinig o'zlashtirish ko'rsatkichi, vazifaga ma'suliyat bilan yondashuv darajasi, kitobxonlik madaniyati ham oydinlashib, alohida yondoshuvga turtki bo'ladi. Yana bir ahamiyatli tomoni shunda farzandlari o'ziga tegishli asarni o'qib bo'lib, kitoblarni almashtiradi. Biri- ikkinchisining kitobini ham o'qib o'zlashtirib boradi. Shuningdek, oila doirasida ham kitob o'qib berishi yo'lga qo'yilgan. Onaning uy ishlari ko'p bo'lganligi sababli ko'pincha dam olish kunlari otasi farzandlarini atrofiga to'plab, tarbiyaviy ahamiyati mazmun aks ettiradi.

Bu kitobni sevuvchi oilada kitobxonlik bo'yicha ota barchaga namuna bo'lishga loyiqdir.

Bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, o'qish madaniyati amalga oshirilmoqda, pand- nasixatlar olib borilmoqda. Shunda ham oilaga oid muhitda kitobxonlik madaniyati qoniqarli darajada emas. Yuqoridagi singari kitobsevar oilalar bilan bir qatorda, ularning teskarisi bo'lgan oilada tegishli muhitni ham uchratimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganimizda ma'naviy barkamol kitobxon avlod tarbiyasida oila ahamiyatli va mustahkam asos ekanligini namoyon bo'ladi. Shu bois jamiyatda rivojlantirish, o'qish madaniyatini takomillashtirish bo'yicha har qanday faoliyatga oila bilan hamohang fikr olishib ish olib borish ko'zlangan maqsadlarga yetishishga munosib imkoniyat yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Юсуф Ҳос Ҳожиб «Кудағу билиг» (Сўзбоши муаллифи Б.Тўхлиев; Р.Ш.Муҳаммаджонов). –Тошкент, 1989 йил, 40-45 б

2. Madraximova Sh., Kutubxonalikda o'rnak zarur. «Ma'rifat» gazetasi, 16-yanvar' 2013-jil, №5 (8550).
3. Mamatraymov X., Kitob sovg'a qilganmisiz? «Ma'rifat» gazetasi, 6-fevral' 2013-jil.
4. M. Musurmonova.- Badiiy adabiyot- bolalarni ma'naviy shakllantirishda muhim tarbiya vositasi. Xalq ta'limi jurnali, 2014-y, №3, 81-85-betlar